



## KRIMINOGEN VAZIYAT MURAKKAB MAHALLADA HUQUQBUZARLIKLARNING BARVAQT OLDINI OLISH ILMIY-NAZARIY TAHLILI

**Ummatov Muhammadrasul Tursunovich**

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20607029>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-iyun 2026 yil  
Ma'qullandi: 06-iyun 2026 yil  
Nashr qilindi: 09-iyun 2026 yil

### KEY WORDS

*kriminologik nazariya, kriminogen vaziyat, murakkab mahalla, huquqbuzarlik, barvaqt oldini olish, jinoyatchilik profilaktikasi, profilaktika inspektori, jamoat xavfsizligi.*

### ABSTRACT

*Maqolada kriminogen vaziyati murakkab bo'lgan mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va konseptual yondashuvlari tahlil qilingan. Muallif kriminologik nazariyalar, huquqbuzarliklar profilaktikasining metodologik bazasi hamda ijtimoiy-huquqiy preventiv choralar mohiyatini tadqiq etadi. Maqolada kriminogen omillarni barvaqt aniqlash va neytrallashtirish nazariy modellari o'rganilib, mahalla institutining jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi huquqiy maqomini takomillashtirishga doir ilmiy xulosalar ilgari surilgan.*

Kriminogen vaziyat murakkab bo'lgan mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish masalasi zamonaviy kriminologiya va huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, aholi migratsiyasi, iqtisodiy tengsizlik, oilaviy muammolar hamda yoshlar o'rtasida ijtimoiy nazoratning susayishi ayrim hududlarda kriminogen vaziyatning murakkablashuviga sabab bo'lmoqda. Shu bois huquqbuzarliklarni sodir etilganidan keyin aniqlash va javobgarlik choralari qo'llashdan ko'ra, ularni barvaqt oldini olishga qaratilgan tizimni takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, mahalla instituti faoliyati bilan uyg'unlashgan profilaktika mexanizmlarini rivojlantirish jinoyatchilikka qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etad<sup>1</sup>.

Nazarimizda, "kriminogen vaziyat" tushunchasi muayyan hududda jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning yuzaga kelishiga imkon beruvchi omillar, shart-sharoitlar hamda ijtimoiy muhit yig'indisini anglatadi. Mazkur tushuncha hududning iqtisodiy, demografik, ma'naviy-axloqiy, psixologik va huquqiy holatini o'zida mujassamlashtiradi.

Kriminogen vaziyat murakkab bo'lgan mahallalarda jinoyatchilik ko'rsatkichining yuqoriligi, takroriy huquqbuzarliklar sonining ortishi, oilaviy nizolar, ishsizlik, spirtli ichimlik va giyohvandlik vositalarini iste'mol qilish holatlarining keng tarqalishi kuzatiladi. Shu sababli

<sup>1</sup> Ulug'bekov B.U. kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish faoliyati // Monografiya. – 2025. – B. 45-52.

bunday hududlarda oddiy profilaktik tadbirlar yetarli samara bermaydi va manzilli, ilmiy asoslangan, kompleks yondashuvni talab etadi<sup>2</sup>.

Amerikalik olim Clifford Shaw va Henry McKay tomonidan ishlab chiqilgan "ijtimoiy dezorganizatsiya nazariyasi"ga ko'ra, jinoyatchilik ko'p hollarda ijtimoiy institutlarning zaiflashuvi, aholi o'rtasidagi birdamlikning pasayishi va mahalliy nazorat mexanizmlarining sustligi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, jinoyatchilikni kamaytirish uchun hududiy ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish zarur<sup>3</sup>.

Fikrimizcha, mazkur yondashuv O'zbekiston sharoitida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, mahalla tizimi orqali ijtimoiy nazoratni kuchaytirish, aholini jamoaviy mas'uliyat asosida birlashtirish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish barvaqt profilaktikaning muhim yo'nalishi sifatida qaralmoqda.

Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda asosiy e'tibor jinoyat sodir etilganidan keyingi javobgarlikka emas, balki jinoyatga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratiladi. David Farrington barvaqt profilaktikani "jinoyatchilikka olib keluvchi xavf omillarini imkon qadar erta bosqichda aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan tizimli faoliyat" sifatida baholaydi<sup>4</sup>. Bizningcha, yoshlar bilan individual ishlash, oilaviy muhitni yaxshilash, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Kriminogen vaziyat murakkab mahallalarda barvaqt profilaktikaning asosiy xususiyatlaridan biri bu manzillilik tamoyilidir. Ya'ni profilaktika tadbirlari umumiy tarzda emas, balki aynan muammo mavjud hudud va xavf guruhi vakillariga yo'naltirilgan holda amalga oshiriladi. Bu esa profilaktika inspektori, mahalla raisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ta'lim muassasalari va boshqa mutasaddi tashkilotlar o'rtasidagi uzviy hamkorlikni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimini takomillashtirishga oid qarorlarida ham hududlarni "qizil", "sariq" va "yashil" toifalarga ajratish orqali differensial yondashuvni qo'llash nazarda tutilgan<sup>5</sup>.

Mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda axborot-tahliliy faoliyat alohida o'rin tutadi. Profilaktika inspektori xizmat hududidagi kriminogen vaziyatni muntazam tahlil qilib borishi, huquqbuzarlikka moyil shaxslarni aniqlashi, oilaviy muammolar, ijtimoiy tanglik va boshqa xavf omillarini monitoring qilishi zarur. Sirojiddin Eshkobilovning ta'kidlashicha, xizmat hududidagi kriminogen vaziyatni ilmiy asosda o'rganish profilaktika faoliyatining samaradorligini oshiradi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda aniq rejalashtirish

---

<sup>2</sup> Eshkobilov S.A. Профилактика инспекторининг хизмат хуудидаги криминоген вазиятни ўрганиш ва тахлил қилиш фаолияти // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – № 10. – Б. 215-221.

<sup>3</sup> Shaw C. R., McKay H. D. Juvenile Delinquency and Urban Areas. – Chicago: University of Chicago Press, 1942. – 448 p.

<sup>4</sup> Welsh B. C., Farrington D. P. Early Developmental Prevention of Delinquency and Later Offending: Prospects and Challenges // Journal of Developmental and Life-Course Criminology. – 2009. – Vol. 3. – No. 3. – P. 221-242.

<sup>5</sup> Sharipov J. Mahallalarni toifalash orqali huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish xususiyatlari // American Journal of Political Science and Leadership Studies. – 2025. – Т. 2. – № 11. – Б. 44-50.

imkonini beradi<sup>6</sup>. Bu jarayonda statistik ma'lumotlar, ijtimoiy so'rovlar, fuqarolar murojaatlari va raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy kriminologiyada "hot spots policing" konsepsiyasi keng qo'llanilmoqda. Ushbu nazariya mualliflari David Weisburd va Anthony Braga jinoyatlar ma'lum hududlarda ko'proq sodir etilishini ilmiy asosda isbotlab berganlar. Ularning fikricha, resurslarni aynan jinoyatchilik yuqori bo'lgan hududlarga yo'naltirish orqali profilaktika samaradorligini oshirish mumkin<sup>7</sup>. O'zbekiston sharoitida ham kriminogen vaziyat murakkab mahallalarda "mahalla yettiligi" faoliyatini kuchaytirish, patrul xizmatini manzilli tashkil etish va xavfli hududlarda videokuzatuv tizimlarini keng joriy etish mazkur konsepsiyaning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning yana bir muhim jihati — ijtimoiy profilaktikadir. Ijtimoiy profilaktika aholining turmush darajasini yaxshilash, bandlikni ta'minlash, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish, oilalarni qo'llab-quvvatlash va ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish orqali amalga oshiriladi. Ronald Clarke tomonidan ishlab chiqilgan "situatsion jinoyatchilik profilaktikasi" nazariyasida jinoyat sodir etish imkoniyatlarini kamaytirish orqali jinoyatchilikni pasaytirish mumkinligi asoslangan<sup>8</sup>. Mazkur yondashuv asosida mahallalarda tungi yoritish tizimini yaxshilash, videokuzatuv vositalarini o'rnatish, tashlandiq binolarni nazoratga olish va jamoat joylarida xavfsizlikni kuchaytirish kabi choralar amalga oshirilmoqda.

Kriminogen vaziyat murakkab mahallalarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash profilaktikaning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki yoshlar jinoyatchilikka moyil qatlam sifatida yuqori xavf guruhiga kiradi. A.Matchanovning qayd etishicha, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda oila, maktab, mahalla va ichki ishlar organlari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega<sup>9</sup>. Yoshlar bilan individual ishlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport va madaniy tadbirlarga jalb qilish, psixologik maslahatlar berish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish mumkin.

Shu bilan birga, J.Sharipovning tadqiqotlarida mahallalarni kriminogen vaziyat darajasiga qarab gradatsiya qilish tizimi innovatsion yondashuv sifatida baholanadi. Uning ta'kidlashicha, "qizil" zonalarda kuchaytirilgan nazorat va kompleks choralar, "yashil" zonalarda esa monitoring va profilaktik ishlar yetarli bo'ladi. Bu resurslarni samarali taqsimlashga va jinoyatchilik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada pasaytirishga yordam beradi<sup>10</sup>. Amaliyot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2025-yilda PQ-1 Qarorning ijrosi natijasida mahallalarda sodir etiladigan jinoyatlar soni deyarli 1,5 baravar qisqargan. Rasmiy statistik

---

<sup>6</sup> Eshkobilov S. A. Profilaktika inspektorining xizmat hududidagi kriminogen vaziyatni o'rganish va tahlil qilish faoliyati // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – № 10. – B. 215-221.

<sup>7</sup> Weisburd D., Braga A. Hot Spots Policing as a Model of Crime Prevention // Crime and Justice. – 2019. – Vol. 48. – No. 1. – P. 1-36.

<sup>8</sup> Clarke R. V. Situational Crime Prevention: Successful Case Studies. – New York: Harrow and Heston, 1995. – 433 p.

<sup>9</sup> Matchanov A.A. O'zbekiston yoshlari o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlarni barvaqt oldini olishni amalga oshirish xususiyatlari // Academia Globe: Inderscience Research. – 2022. – T. 3. – № 04. – B. 560-564.

<sup>10</sup> Sharipov J. Mahallalarni gradatsiya qilish orqali huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning o'ziga xos xususiyatlari // Amerika siyosiy fanlar va rahbarlik tadqiqotlari jurnali. – 2025. – T. 3. – №. 9. – C. 27-31.

ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning o'tgan davrida 39 foiz yoki 3503 ta mahallada bironta ham jinoyat sodir etilmagan.

2025-yilning 11 oyida oldini olish lozim bo'lgan jinoyatlar o'tgan yilga (45 545 ta) nisbatan 4192 taga (41 353 ta) kamaygan. Xususan, barcha og'ir turdagi jinoyatlar:

badanga qasddan og'ir shikast yetkazish 860 ta (2024-yilda — 965 ta);

o'g'rilik 10 154 ta (2024-yilda — 10 607 ta);

talonchilik 389 ta (2024-yilda — 517 ta);

bosqinchilik 119 ta (2024-yilda — 163 ta);

firibgarlik 7565 ta (2024-yilda — 8216 ta);

bezorilik 2063 ta (2024-yilda — 2369 ta);

yo'l-transport hodisalari 8738 ta (2024-yilda — 9365 ta);

transport vositasini olib qochish 216 taga (2024-yilda — 254 ta) kamayishiga erishilgan.

Shuningdek:

yoshlar 12 110 ta (2024-yilda — 16 062 ta);

voyaga yetmaganlar 2306 ta (2024-yilda — 2870 ta);

ayollar 3214 ta (2024-yilda — 4167 ta);

ishsizlar 3091 ta (2024-yilda — 4364 ta);

guruhlar tomonidan 3480 ta (2024-yilda — 4491 ta) sodir etilgan jinoyatlar ham kamaygan.<sup>11</sup>

Biroq, ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, tizimning samaradorligi nafaqat statistik ko'rsatkichlarda, balki fuqarolarning shaxsiy xavfsizlik hissi oshishida, ijtimoiy muammolarni barvaqt hal etishda va raqamli texnologiyalarni ("E-ijtimoiy profilaktika" va "E-ma'muriy ish" tizimlarining integratsiyasi) joriy etishda namoyon bo'lmoqda. Dotsent A.X.Altmishevning tadqiqotida yaxlit manzilli ishlash tizimi ijtimoiy profilaktika subyektlarining muvofiqlashtirilgan faoliyatini ta'minlash orqali mahallani "farovon va xavfsiz" tamoyiliga asoslangan yangi boshqaruv modeliga aylantirishi ta'kidlanadi. Ushbu modelda ilmiy-amaliy o'rganishlar, mas'ul rahbarlarning shaxsiy javobgarligi va har choraklik monitoring muhim o'rin tutadi<sup>12</sup>.

Yaxlit manzilli ishlash tizimining ilmiy-nazariy asoslari huquqiy munosabatlarning yangi shakllarini shakllantirishga qaratilgan. E.W. Sieversning tahlilida mahalla instituti Sovet davridan keyingi davrda ham ijtimoiy nazorat va jinoyatchilikning oldini olishning samarali mexanizmi bo'lib qolganligi qayd etiladi.

Xalqaro tadqiqotlarda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini huquq-tartibot idoralari bilan integratsiya qilish jinoyatchilik ko'rsatkichlarini 20-30 foizga pasaytirishi mumkinligi ko'rsatilgan. O'zbekiston misolida bu ko'rsatkich yanada yuqori bo'lib, 2025 yil yakunlariga ko'ra oldini olinadigan jinoyatlarning 89,3 foizi bartaraf etilgan. Shu bilan birga, tizimning zaif tomonlari ham mavjud: ba'zi mahallalarda resurslar yetishmasligi, raqamli

<sup>11</sup> 2025-yilda og'ir turdagi jinoyatlar soni kamaydi, faqatgina nomusga tegish jinoyati ko'paydi — IIV. Elektron manba: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/24/crime-stats/>.

<sup>12</sup> Altmishev A.X. Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish bo'yicha yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha choralarda // CyberLeninka. – 2026. – T. 4. – №. 2. – C. 45-52.

tizimlarning to'liq integratsiyasi kechikishi va mas'ul shaxslarning shaxsiy javobgarligini yanada kuchaytirish zarurati saqlanib qolmoqda<sup>13</sup>.

Tizimning ijtimoiy-psixologik jihatlari ham alohida ahamiyatga ega. Mahallalarda "namunali xavfsiz ko'cha" va "namunali xavfsiz uy"lar tashkil etish tajribasi fuqarolarning huquqiy ongini oshirish va jamoaviy mas'uliyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Professor F.T.Ganievning tadqiqotida fuqarolar yig'inlari faoliyatini tizimli tashkil etish "farovon va xavfsiz mahalla" tamoyilini amalda ro'yobga chiqarishning asosiy vositasi ekanligi ta'kidlanadi. Ushbu tamoyil ijtimoiy muammolarni (ishsizlik, oilaviy ziddiyatlar, mehnat migratsiyasi oqibatlari) manzilli hal etishga qaratilgan. Ilmiy nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, yaxlit manzilli ishlash tizimi nafaqat reaktiv (jinoyat sodir bo'lgandan keyin choralar ko'rish), balki proaktiv (barvaqt oldini olish) xususiyatga ega. Bu borada xalqaro tajribada (Singapur, Yaponiya jamoat xavfsizligi modellari) mahalliy darajada kuchli ijtimoiy nazorat va texnologik monitoring birlashtirilgani kuzatiladi. O'zbekiston sharoitida esa milliy mahalla instituti bu modellarni boyitib, fuqarolar ishtirokini maksimal darajada oshirish imkonini beradi<sup>14</sup>.

Mahallalarda oilaviy nizolar va maishiy zo'ravonlik holatlarining ortishi ham kriminogen vaziyatni murakkablashtiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli barvaqt profilaktikada oilalar bilan ishlash, nizoli oilalarni aniqlash va ularga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish muhim vazifa sanaladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy muhitdagi salbiy holatlar voyaga yetmaganlarning deviant xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadi<sup>15</sup>. Shu bois mahallalarda xotin-qizlar faollari, psixologlar va profilaktika inspektorlarining hamkorligi asosida oilaviy muammolarni erta bosqichda aniqlash va bartaraf etish tizimini kuchaytirish zarur.

Kriminogen vaziyat murakkab hududlarda profilaktika faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri idoralararo hamkorlikning yuqori darajada yo'lga qo'yilishidir. Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish faqat ichki ishlar organlari zimmasidagi vazifa bo'lib qolmasdan, barcha davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini talab qiladi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, yoshlar siyosati, mahalla va nuroniylar tizimlari o'rtasidagi hamkorlik kompleks profilaktikani ta'minlaydi. Ayniqsa "mahalla yettiligi" faoliyati doirasida muammoli oilalar va xavf guruhidagi shaxslar bilan individual ishlash mexanizmi amaliyotda muhim natijalar bermoqda<sup>16</sup>.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimida muhim vositaga aylanmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari,

---

<sup>13</sup> Sievers E.W. O'zbekiston mahallasi: Sovet davridan mutlaq residential jamoaga o'tish // Xalqaro va qiyosiy huquq jurnali. – 2002. – T. 2. – №. 1. – C. 15-28.

<sup>14</sup> Ganiev F.T. Fuqarolar yig'inlari faoliyatini tizimli tashkil etish va "farovon va xavfsiz mahalla" tamoyilini amalga oshirish // Yevroosiyo huquq, moliya va amaliy fanlar jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 12. – C. 159-162.

<sup>15</sup> Ismailov I., Ziyodullayev M. Криминологический анализ и своеобразные особенности преступлений несовершеннолетних // Журнал правовых исследований. – 2024. – № 1. – С. 33-40.

<sup>16</sup> Altmishev T. X. Республика маҳаллаларида "Ижтимоий профилактика ҳафталиги"ни ўтказиш тартибининг илмий-назарий таҳлили // International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2025. – T. 5. – № 2. – Б. 118-124.

videokuzatuv kameralaridan foydalanish, elektron ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish profilaktika samaradorligini oshirmoqda. Dario Ortega Anderes va boshqa tadqiqotchilar texnologik vositalar jinoyatchilikni prognozlash, xavf omillarini aniqlash va profilaktik choralarni samarali tashkil etishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi<sup>17</sup>. O'zbekiston sharoitida "Xavfsiz hudud", "Xavfsiz shahar" kabi loyihalarning joriy etilishi ham aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Kriminogen vaziyat murakkab mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish muhim o'rin tutadi. Jumladan, fuqarolarning qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalanishi, huquqiy ong va huquqiy savodxonlik darajasining yuksalishi jinoyatchilikning kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu borada Z.Umarovning fikricha, profilaktika inspektorlarining aholi bilan muntazam muloqoti, huquqiy targ'ibot tadbirlarini samarali tashkil etish va fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash profilaktika samaradorligini oshiradi<sup>18</sup>.

Kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishda viktimologik profilaktika ham muhim o'rin tutadi. Viktimologik yondashuv aholining jinoyat qurboniga aylanish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan bo'lib, bunda fuqarolarni ehtiyotkorlikka o'rgatish, xavfsizlik qoidalariga rioya etish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa yolg'iz yashovchi keksalar, voyaga yetmaganlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bilan ishlash orqali ko'plab huquqbuzarliklarning oldini olish mumkin.

Mahallalarda barvaqt profilaktika samaradorligini ta'minlash uchun kriminologik prognozlash usullaridan foydalanish muhimdir. Kriminologik prognozlash jinoyatchilik dinamikasini oldindan baholash, xavf omillarini aniqlash va profilaktik choralarni rejalashtirish imkonini beradi. Ilmiy asoslangan prognozlash tizimi profilaktika subyektlariga mavjud resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Shu bois zamonaviy statistik tahlil, sun'iy intellekt va ma'lumotlar bazasi bilan ishlash ko'nikmalarini profilaktika inspektorlari faoliyatiga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Kriminogen vaziyat murakkab mahallalarda barvaqt profilaktikaning yana bir o'ziga xos xususiyati individual yondashuvdir. Har bir huquqbuzarlikka moyil shaxsning psixologik, ijtimoiy va ma'naviy xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlash samarali natija beradi. Xususan, ilgari sudlangan shaxslar, spirtli ichimlik yoki giyohvandlikka ruju qo'ygan fuqarolar, ishsiz yoshlar va notinch oilalarda yashovchi shaxslar bilan individual profilaktik suhbatlar, ijtimoiy moslashtirish va bandlik masalalarini hal etish orqali ularning qayta huquqbuzarlik sodir etish ehtimolini kamaytirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Xususan, mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini takomillashtirish, profilaktika inspektorlarining vakolatlarini kengaytirish, aholi bilan manzilli ishlash va raqamli

---

<sup>17</sup> Ortega Anderes D., Kanjo E., Johnson S. The Rise of Technology in Crime Prevention: Opportunities, Challenges and Practitioners Perspectives // International Journal of Information Management. – 2021. – Vol. 58. – P. 102-118.

<sup>18</sup> Umarov Z.R. Profilaktika inspektorlari va mahalla yettiligi – vatan tayanchi //– 2024. – T. 35. – B. 24-26

texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar profilaktika samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda<sup>19</sup>.

1. Xulosa qilib aytganda, kriminogen vaziyat murakkab mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish o'zining kompleksligi, manzilliligi, individual yondashuvi, idoralararo hamkorlikka asoslanganligi va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgani bilan ajralib turadi. Mazkur faoliyatning samaradorligi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga, balki mahalla institutining imkoniyatlari, fuqarolarning huquqiy madaniyati va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik darajasiga ham bevosita bog'liqdir. Shu bois kriminogen vaziyat murakkab hududlarda profilaktika tizimini ilmiy asosda takomillashtirish, xalqaro tajribalarni milliy amaliyot bilan uyg'unlashtirish va profilaktika subyektlari faoliyatini raqamlashtirish istiqboldagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.



---

<sup>19</sup> Khikmatov F.I. Strengthening early crime prevention and safe environments in uzbekistan's communities: a study of the 2025 presidential decision // Law, Policy and Society. – 2025. – Vol. 3. – No. 5. – P. 71-80.